



**Jumma BUXOROV,**  
Tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti  
E-mail: [buxorovjuma@gmail.com](mailto:buxorovjuma@gmail.com)

QarDU professori, t.f.d A.Xasanov taqrizi asosida

#### SOCIO-ECONOMIC STATUS OF THE POPULATION OF THE DEHKHANABAD DISTRICT IN 1941-1945

Annotation

In this article, the author examines the impact of World War II on the population of the Dehkanabad district of Kashkadarya, the contribution of the district's residents to the victory, and the shortcomings made during the war years, analyzing archival materials and historical sources.

**Key words:** Dehkanabad district, livestock farming, defense fund, home front work, World War II, meat plan, grain delivery, Mullajonov, socialist competition.

#### СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ДЕХКАНАБАДСКОГО РАЙОНА В 1941-1945 ГОДАХ

Аннотация

Вторая мировая война 1941–1945 годов имела тяжёлые последствия для всего человечества. В данной статье автор на основе анализа архивных материалов и исторических источников изучает влияние этой войны на население Дехканабадского района Кашкадарьинской области, вклад жителей района в победу, а также рассматривает недостатки, допущенные в годы войны.

**Ключевые слова:** Дехканабадский район, животноводство, фонд обороны, тыловые работы, Вторая мировая война, мясной план, поставка зерна, Муллажонов, социалистическое соревнование.

#### DEHQONOBOD TUMANI AHOLISINING 1941-1945-YILLARDAGI IJTIMOY-IQTISODIY AHVOLI

Annotatsiya

1941-1945-yillarda Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqargan, muallif ushbu maqolada bu urushning Qashqadaryodagi Dehqonobod tumani aholisiga ta'siri, tuman aholisining g'alabaga qo'shgan hissasi, urush yillarida yo'lga qo'yilgan kamchiliklarni arxiv materiallari hamda tarixiy manbalarni tahlil qilgan holda o'rganib chiqqan.

**Kalit so'zlar:** Dehqonobod tumani, chorvachilik, mudofaa fondi, front orti ishlari, Ikkinchi jahon urushi, go'sht plani, g'alla yetkazib berish, Mullajonov, sotsialistik musobaqa.

**Kirish.** 1941-yilda Sovet Ittifoqini ham o'z domiga tortgan Ikkinchi jahon urushi Qashqadaryo viloyatidagi eng yirik tuman bo'lgan Dehqonobodga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Dehqonobod tumani hududan katta (maydoni 4 ming kv. km. ga yaqin) lekin aholi soni kam bo'lganligi sababli aholi tarqoq joylashgan edi. Bu esa urush yillarida tashish va yetkazib berish, aholiga ijtimoiy yordam bilan ta'minlash kabi muammolarni keltirib chiqara boshlaydi.

Mahalliy yozuvchilardan Husan Eshmurodovning yozishicha, Ikkinchi jahon urushi yillarida tumanni ikki kishi Mullajonov (1938-1944) va A. Rasulovlar boshqargan [1] va ularning asosiy vazifasi tumandagi mavjud barcha resurslarni fronga yo'naltirish edi.

Yana bir mahalliy yozuvchi Dehqonobod tumanining urush yillaridagi ahvoriga kengroq to'xtalib, kolxoz va savxozlar tarqoq joylashgan, dehqonchilik va chorvachilik sohalari ancha past bo'lgan, texnika bo'lmaganligi sababli ot, eshak, ho'kizni aravaga qo'shilgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashish amalga oshirilgan. Tuman markaziga borib kelish ham juda mushkul bo'lgan. Osha yillar aholi o'tasida yuqumli kasalliklar ko'payib uning davolash punktlari kam bo'lgan. Erkaklar urushga ketganligi sababli ishchi kuchi yetishmagan. Tumandan maishiy va qishloq xo'jalik mahsulotlari frontga yuborilgan va bu borada tovlamachilik qilganlar jazolangan. Odamlar esa o'simliklardan bo'tqa atala tayyorlab yeyishga majbur bo'lishgan[2].

Bu urushda butun respublikada bo'lgani singari Dehqonobod tumani aholisi ham g'alaba uchun butun imkoniyati bilan harakat qilganini, shu bilan birga bu urush juda katta insoniy va moddiy talofotlar keltirganigiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

**Natijalar va muhokama.** Ikkinchi jahon urushining boshlanishi oqibatida aholi turmush tarzida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Mehnat qilishga yaroqli bo'lgan kishilarning barchasi

urushga safarbar etildi. Dehqonobod rayonidan 3418 nafar kishi urushga ketdi. Urush yillarida butun mamlakatda bo'lganidek, Qashqadaryoda jumladan Dehqonobod tumani hududi aholisi turmush tarzi juda og'ir kechdi. Urushning barcha og'irligi front orqasida qolgan ayollar, balog'atga yuqumagan yoshlar, keksalar zimmasiga yuklatildi. 1943 yilga kelib Qashqadaryo oblasti yana qayta tiklandi. Urushdan keyingi yillarda asta-sekinlik bilan aholi turmush tarzida o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi.

1941 yilda tuman mexnatkashlari mudofaa fondiga 87 ming 758 so'm pul, qariyb 80 ming so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Respublikada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy harakati boshlangan dastlabki paytlardan Dehqonobod rayonida ham yoshlarning ilk tashkilotlari tuzila boshladi. 1923 yilda 35 nafar komsomol yoshlarni birlashtirgan birinchi yacheyka Tang'aramda tashkil etilib, bu tashkilotga Ashur Xushvaqtoy yetakchilik qildi so'ngra bunday yacheykalar tumandagi Qizilcha, Tog'aytemir va Boshchorbog' qishloqlarida ham tashkil topdi. Bu yacheykalarga birikgan yoshlar juda faol harakat qilishdi, ular omma o'rtasida tushuntirish ishlari olib borishdi. Yoshlarni ishlab chiqarishga safarbar qilishib, dehqonchilik, chorvachilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Boshchorbog' qishlog'i komsomol yacheykasida To'lash Safarov kotib edi, u juda ham e'tiqodi yigit bo'lib xalq orasida obro'-e'tiborli bo'lgan. U xojalikda yetishtirilgan g'allaning talon-taroj bo'lishiga yo'l qo'ymagani uchun bosqinchilar tomonida o'ldirilgan. Tumanda bunday fidoyi insonlar juda ko'p bo'lgan. 1930 yillarda tumanda g'alla yetishtirishni ko'paytirish davlatning bosh siyosati hisoblanardi. Usha davrda yerga qo'sh o'moch bilan ishlov berilar, texnika endigina qo'llanila boshlagan edi. Shuning uchun yoshlardan traktorhilar tayyorlash zaruratga aylandi. Qashqadaryo viloyatiga yosh yigit-qizlarni traktorhilikka o'rgatish uchun

Leningradan Mina Avgustovna Kliment degan qiz kelib ish olib bordi [3].

Front orti mamlakat ichkarisida ham haqiqiy mehnat fronti hukm surardi. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun" - degan shior barchaning ongiga singib, hamma shu ruhdan mehnat qilishardi [4]. Jumladan tuman mehnat ahli davlatga ko'plab don, chorva mahsulotlari, issiq kiyim-kechak yetkazib berish uchun kecha-kunduz tinim bilmay mehnat qilishgan. Bu ishda yosh yigit-qizlar ayniqsa faollik ko'rsatishgan. Shu yillarda

Shu bilan birga tuman aholisi front uchun quyidagi miqdordagi mahsulotlar ham yetkazib berishgan[6]:

Dehqonobod tumanidan fronga yuborilgan mahsulotlar			
t/r	Mahsulotlar	birlik	Miqdori
1	Qorako'l teri	dona	886402
2	Go'sht	tonna	16771,4
3	Jun	tonna	6056
4	Pishloq	tonna	822
5	Tuxum	ming dona	10081
6	Xom teri	dona	113710

Urush yillarida planlarni ortig'i bilan bajarishda sotsialistik musobaqaning o'rni ham beqiyos bo'lgan. 1943 yil 10 ta qishloq soveti, 48 ta kolxoz, 147 ta brigada va 497 ta zvenolar sotsialistik musobaqaga qo'shilgan edi. Bular ichida Boshchorbog' qishloq soveti rayonaro musobaqada yutib chiqdi [7].

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikaning boshqa aholisi singari Dehqonobodliklar ham urush ortida og'ir mehnat qildilar. Ular asosan ayollar, balog'at yoshiga yetmagan yoshlar, qariyalar edi. G'alla o'rish, boshqoq terish, qo'sh haydash, ariqlarni tozalash dalalarga mineral o'g'itlar tashib chiqarish kabi yumushlarning hammasi o'shalar zimmasida edi. Ishlarning deyarli hammasi qo'lda bajarilar edi. Bu davrda rayonda bir dona polutorka mashinasi bor edi xolos [8].

Urush yillarida aholining nonga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1942-1943 yilgi ekin mavsumida rayon bo'yicha 60140 gektar yer ajratildi. Ushbu yerning 4520 gektariga kuzgi don, 7249 gektariga bahorgi don, 2300 gektariga texnikali ekinlar 222 gektariga sabzavot ekinlari, 3749 gektariga mollar uchun ozuqa bo'ladigan o'simliklarni ekish rejalashtirildi. 1946-1947 yillarda Qashqadaryo hududida, jumladan Dehqonobod rayonida ham qurg'oqchilik yuz berdi. 1945 yilning kuzida 1800 gektar yerga g'alla ekilgandi. Ushbu g'alla ko'zlangan hosilni bermadi. Bu ahvol 2-3 yil davom etdi. Shu davrda Dehqonobodda 1 kilogramm arpaning narxi o'sha davr kursi bilan 120 so'm, 1 kilogramm bug'doy narxi 200 so'mga ko'tarilib, ketdi.

1946 yilgi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Dehqonobod rayonida jami 4730 xo'jalik bo'lib, shundan o'rtacha yashaydiganlar 1200 xo'jalikni, nihoyatda og'ir ahvolda hayot kechirayotganlari 3530 xo'jalikni tashkil etdi, yoki rayon aholisining 68 foizdan ortig'i qashshoq edi.

1946 yilning 30 aprelida rayijroqum qaroriga ko'ra rayonning muhtoj kolxozchilari uchun pul barobarida tariq berildi. Rayon bo'yicha jami 200 sentner tariq ajratildi. Urushdan keyingi yillarda qishloqlarda tazyiqqa asoslangan kattiq siyosat o'tkazildi. Daladagi har bir boshqoq, hattoki to'kilgan don qattiq nazoratga olindi. Joylarda boshqochilar brigadasi tuzilib, har bir kishi 18-20 kilogrammdan boshqoq terishga va davlatga topshirishga majbur

tuman yoshlariga Juma Norsafarov yyetakchilik qilgan. Yoshlar "har birimiz frontga ketgan ikki jangchining ishini bajaramiz" degan shior ostida mehnat qilishgan.

Urush yillarida Dehqonobod tuman aholisi frontga yordam tariqasida 752 ming 775 so'm naqd pul to'plashgan, shu mablag'ning 97 ming 758 so'mi bevosita yoshlar tomonidan topshirilgan. Bundan tashqari 79858 so'mlik oziq-ovqat ham to'planib, mudofaa frontiga topshirilgan [5].

etildi. 1947-1948 yillarda ham texnika masalasi jihatidan rayonda ahvol yaxshi emas edi. Traktorlarning yetishmaganligi tufayli, yerlar omoch bilan haydaldi. Bu esa don ekishning kechikishiga sabab bo'ldi. 1949 yilda rayonda bahorgi don ekish aprel oyigacha, kuzgi don ekish yanvar oyigacha cho'zildi. Buning oqibatida davlatga g'alla topshirish rejasi bajarilmadi [9].

Mazkur yilda davlatga 68000 sentner don topshirilmadi. 1948 yilda rayon bo'yicha 41234 gektar yerga boshqoqli don ekildi. Ushbu donning har gektaridan 7,9 sentner o'rniga 1,48 sentner hosil olindi. Chorvachilik bo'yicha ham davlat tomonidan qo'yilgan reja bajarilmadi. 1948 yilda qoramollar rejaga nisbatan 79,0 foizga, otlar esa 89,6 foizga bajarildi. 1949 yilda esa otlar bo'yicha davlat rejasi 76 foizga, tuyalar bo'yicha 92 foizga qorako'l qo'ylar bo'yicha 83 foizga, tovuqlar 50 foizga bajarildi. Shu yili rayonda 3020 tonna go'sht, 2150 tonna sut, 5470 sentner jun, 63600 dona qorako'l teri yeshtishtirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Tuman rahbariyati hudud kattaligi va tog'li qismi ko'p bo'lganligi sababli frontga asosan go'sht mahsulotlarini yetkazib berish uchun asosan chorvachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Bu borada rahbariyatning ko'r-ko'rona topshiriqlari, cho'pon va chorvadorlarga katta rejalarning yuklashi tabiiy hol edi. Ammo har xil tabiiy ofatlar natijalarini, chorva veterinarlarning yetishmasligi va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra chorva mollariga yetadiga talofotlar, ularning ko'payishiga bo'lgan har xil muammolarni bartaraf etish choralarining ko'rilmaligi ko'plab muammolar keltirib chiqaradi. Xususan, chorva sonining kamayishi yoki har qanday sabablarga ko'ra go'sht va jun planlarining bajarilmay qolishi chorvadorlarga og'ir jazo choralarining qo'llanilishiga sabab bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, tuman aholisi butun urush yillari davrida frontga chorva mahsulotlari yetkazib berishda jonbozlik ko'rsti. Bu jarayon davomida ko'plab talofotlar ham bo'ldi. Bu talofotlarning aksari esa o'sha paytda ishlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi hamda hududning bunday ish sharoitiga tayyor emasligi bilan ham izohlash mumkin. Urush butun insoniyatga uchun ko'p kulfatlar keltirib chiqardi va Dehqonobod tumani aholisi ham bu kulfatlarni boshdan kechirdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Eshmurodov H. Oltin beshigim. –T.: "Fan". 1994. –B.17
2. Toshqulov K. Tog'lar saltanatidagi Tangiharam (tarixiy ocherk). –T.: "Tafakkur", 2020. B-18
3. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26-jamg'arma 2-ro'yxat 89-ish. B-96
4. Qashqalaryo VDA G'uzor bo'limi 29-jamg'arma 8-ro'yxat 35-ish. B-118
5. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 30 jamg'arma 1-ro'yxat 19 ish. B-48-55
6. Qashqadaryo VDA 45-jamg'ma 1-ro'yxat 163-ish. B-81
7. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 8-jamg'arma 4-ro'yxat 53-ish
8. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 18 jamg'arma 2- ro'yxat 94 ish. B-5-72
9. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2- ro'yxat 14 ish. B-91-100